NATIONAL QUALITY ASSURANCE AGENCY FOR EDUCATION

NQAAE

UNDER THE ADMINISTRATION OF THE PRESIDENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI

TA’LIM SIFATINI TA’MINLASH MILLIY AGENTLIGI

TA’LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O‘TKAZISH BO‘YICHA

YAKUNIY HISOBOT

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Davlat oliy ta’lim tashkiloti

60830100 – Suv bioresurslari va akvakultura

Bakalavriat

www.nqaae.uz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI TA’LIM SIFATINI TA’MINLASH MILLIY AGENTLIGI

60830100 – Suv bioresurslari va akvakultura

TA’LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O‘TKAZISH BO‘YICHA YAKUNIY HISOBOT

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI

	**Rais: MULLABAYEV NODIRBEK RAVSHANBEKOVICH** **Toshkent davlat agrar universiteti** **falsafa doktori (PhD), dotsent**
	**A’zo: RANA PARWEEN** **University Centre Askham Bryan (Buyuk Britaniya)** **fan doktori (DSc), professor**

1. UMUMIY MA’LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260110
Xulosa raqami	1227
Xulosa sanasi	25.06.2026
Ta’lim tashkilotining to‘liq nomi	“NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI” DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma’lumotlari	Namangan viloyati, Namangan tumani, Boburshox ko‘chasi, 161-uy. Litsenziya: № 356, 28.02.1992. Guvohnoma: MAS № 0000482, 07.08.2026.
Baholangan ta’lim dasturi nomi	Suv bioresurslari va akvakultura
Yo‘nalish / mutaxassislik kodi	60830100
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo‘lgan normativ-huquqiy hujjat:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “O‘rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O‘rta maxsus, kasbiy, oliy ta’limni va oliy ta’limdan keyingi ta’limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlarida ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA’LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta’lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: *License/Certificate of Educational Institution:*	№ 356, 28.02.1992
2. Ta’lim tashkilotining turi: *Type of Educational Institution:*	Davlat oliy ta’lim tashkiloti
3. Ta’lim dasturi kodi va nomi: *Code and Name of Study Programme:*	60830100 – Suv bioresurslari va akvakultura
4. Ta’lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: *Name of Study Programme in English:*	60830100 – Aquatic Bioresources and Aquaculture
5. Ta’lim dasturining rus tilida nomlanishi: *Name of Study Programme in Russian:*	60830100 – Водные биоресурсы и аквакультура
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: *Offered in Cooperation with:*	—
7. Ta’lim tili: *Medium of Instruction:*	o‘zbek
8. Ta’lim shakli: *Mode of Study:*	kunduzgi / kechki
9. Ta’lim dasturi hajmi: *Study Programme Credits:*	180 kredit
10. Ta’lim dasturi davomiyligi: *Duration of Study Programme:*	3 yil / 3,5 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: *Level in National Qualifications Framework:*	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: *Qualification Title:*	Akvakultura texnologi
13. Qo‘shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: *Additional Qualifications Awarded:*	—
14. Ta’lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: *Type of Document Issued Upon Completion:*	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta’lim oluvchilarning me’yoriy miqdori (to‘liq davr): *Maximum Number of Students (full period):*	135 nafar
16. Ta’lim dasturini o‘qitish manzili: *Address Where the Study Programme is Delivered:*	Namangan viloyati, Namangan tumani, Bobur shox ko‘chasi, 161-uy

4. BAHOLASH YO‘NALISHLARI VA MEZONLAR BO‘YICHA NATIJALAR

Har bir yo‘nalish bo‘yicha baho (muvofiq / muvofiq emas) va har bir mezon bo‘yicha baho (muvofiq / qisman muvofiq / muvofiq emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo‘nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	**Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta’minlash**	**Muvofiq**
1.1.	*ta’lim dasturini amalga oshirish bo‘yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;**	Muvofiq
1.2.	*ta’lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta’minlash bo‘yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;*	Muvofiq
1.3.	*ta’lim dasturi doirasida sifatni ichki ta’minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta’minlangani;*	Muvofiq
1.4.	*mehnat bozori va ta’lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so‘nggi tendensiyalarini aniqlash bo‘yicha monitoring tizimining mavjudligi;*	Muvofiq
2.	**Ta’lim dasturlari**	**Muvofiq**
2.1.	*manfaatdor tomonlar ishtirokida ta’lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta’lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta’lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;**	Muvofiq
2.2.	*ta’lim dasturining milliy ta’lim tizimidagi ustuvor yo‘nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;*	Muvofiq
2.3.	*ta’lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta’minlangani;*	Muvofiq
3.	**O‘quv jarayonini tashkil etish va o‘quv natijalarini baholash**	**Muvofiq**
3.1.	*ishchi o‘quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;**	Muvofiq
3.2.	*o‘quv jarayonining ta’lim dasturida belgilangan o‘quv natijalariga erishishga yo‘naltirilgani;**	Muvofiq
3.3.	*o‘quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;*	Muvofiq
3.5.	*ta’lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o‘quv natijalariga muvofiqligi;*	Muvofiq
3.6.	*talabalarning baholash natijalari bo‘yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;*	Muvofiq
3.7.	*ta’lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo‘yicha samarali tizimning mavjudligi;**	Muvofiq

№	Baholash yo‘nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	**Talabalar faoliyati**	**Muvofiq**
4.1.	*ta’lim dasturi bo‘yicha qabul talablari aniq belgilangani, o‘qishga qabul qilish shaffof tarzda yo‘lga qo‘yilgani;*	Muvofiq
4.2.	*qabul parametrlarining ta’lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;**	Muvofiq
4.3.	*talabalarning o‘qishini ko‘chirish, kursdan-kursga o‘tkazish (qoldirish), o‘qishdan chetlashtirish va o‘qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;**	Muvofiq
4.4.	*talabalarni qo‘llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;*	Muvofiq
5.	**Inson resurslari**	**Muvofiq**
5.1.	*ta’lim dasturi uchun belgilangan me’yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko‘rsatuvchi va o‘quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;**	Muvofiq
5.3.	*yangi ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta’minlash bo‘yicha aniq rejaning mavjudligi;**	Muvofiq
5.4.	*kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish tizimining mavjudligi;*	Muvofiq
6.	**Moddiy-texnik ta’minot**	**Muvofiq**
6.1.	*ta’lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg‘ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo‘llanma (ko‘rsatma)lar bilan ta’minlangani;**	Muvofiq
6.2.	*fanlar kesimida o‘quv va o‘quv-metodik adabiyotlar, elektron ta’lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta’minlangani;**	Muvofiq
6.3.	*o‘quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta’lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta’minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;**	Muvofiq
6.4.	*inklyuziv ta’lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o‘quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;*	Muvofiq
6.5.	*axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta’lim dasturlariga mos o‘quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta’minlangani, o‘quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;**	Muvofiq

№	Baholash yo‘nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	*raqamli ta’lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta’lim imkoniyatlari);*	Muvofiq
6.7.	*ta’lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.*	Muvofiq

5. BAHOLASH YO‘NALISHLARI (BOB) BO‘YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta’minlash yo‘nalishi

Ta’lim dasturini samarali boshqarish va uning barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun zarur tashkiliy-boshqaruv tizimi hamda ichki sifatni ta’minlash mexanizmlari amaldagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq shakllantirilgan. O‘rganish jarayonida ta’lim dasturini ishlab chiqish, tasdiqlash, monitoring qilish va takomillashtirish tartiblari belgilangan me’yoriy talablar asosida tashkil etilganligi aniqlangan. Mazkur jarayonlarda professor-o‘qituvchilar, ish beruvchilar, soha mutaxassislari va talabalar ishtirokining ta’minlanganligi dastur mazmunini amaliy ehtiyojlarga moslashtirish, manfaatdor tomonlarning takliflarini inobatga olish hamda boshqaruv qarorlarining asoslanganligini oshirishga xizmat qiladi. Ichki sifatni ta’minlash mexanizmlarining manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi ta’lim natijalarini muntazam kuzatish, mavjud ehtiyojlarni aniqlash va dastur faoliyatini izchil takomillashtirish imkonini beradi. Moodle va HEMIS axborot platformalarining joriy etilganligi o‘quv jarayonini raqamli boshqarish, ta’lim resurslaridan foydalanish, talabalar faoliyatini monitoring qilish hamda professor-o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi axborot almashinuvini samarali tashkil etish uchun zarur sharoit yaratadi. Manfaatdor tomonlar ishtirokidagi muntazam monitoring natijalaridan foydalanish ta’lim dasturining dolzarbligini saqlash, sifat ko‘rsatkichlarini barqarorlashtirish va boshqaruv jarayonlarining natijadorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Tahlil yakunlariga ko‘ra, ta’lim dasturining tashkiliy-boshqaruv tizimi, ichki sifatni ta’minlash mexanizmlari va raqamli ta’lim muhiti belgilangan akkreditatsiya mezonlariga javob berishi aniqlandi.

2-bob. Ta’lim dasturlari yo‘nalishi

Ta’lim dasturining mazmuni universitetning strategik rivojlanish maqsadlari, mamlakatning ustuvor taraqqiyot yo‘nalishlari hamda mehnat bozori ehtiyojlarini inobatga olgan holda shakllantirilgan bo‘lib, uning maqsad va vazifalari soha

mutaxassislarini tayyorlash talablariga muvofiqlashtirilgan. O‘rganish jarayonida o‘quv rejalari va fan dasturlarida nazariy bilimlar, amaliy mashg‘ulotlar, ilmiy-tadqiqot faoliyati, malakaviy amaliyot hamda yakuniy attestatsiya o‘rtasidagi mazmuniy va tashkiliy uzviylik ta’minlanganligi aniqlangan. Ta’lim jarayonining mazkur tarkibiy qismlari o‘zaro uyg‘unlashtirilganligi talabalarning nazariy tayyorgarligini mustahkamlash, egallangan bilimlarni amaliy sharoitlarda qo‘llash va mustaqil tadqiqot olib borish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Dastur mazmunini takomillashtirishda xalqaro reytinglarda TOP-300 talikka kiruvchi universitetlarning o‘quv dasturlari tahlil qilinganligi hamda xorijiy ekspertlar tavsiyalarining inobatga olinganligi ilg‘or xalqaro ta’lim yondashuvlarini o‘quv jarayoniga tatbiq etish imkonini beradi. Akvakultura va suv bioresurslariga oid fanlarning ishlab chiqarish amaliyoti bilan uzviy bog‘langanligi talabalarning suv organizmlarini yetishtirish, bioresurslardan oqilona foydalanish va akvakultura texnologiyalarini amaliyotda qo‘llash bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Nazariy tayyorgarlik, ilmiy-tadqiqot faoliyati va malakaviy amaliyotning o‘zaro uyg‘unligi bitiruvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorligini oshirish hamda mehnat bozori talablariga moslashuvchanligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Tahlil natijalariga ko‘ra, ta’lim dasturining mazmuni, xalqaro tajriba bilan uyg‘unligi va amaliy tayyorgarlikka yo‘naltirilganligi belgilangan akkreditatsiya talablariga muvofiqligi tasdiqlandi.

3-bob. O‘quv jarayonini tashkil etish va o‘quv natijalarini baholash yo‘nalishi

O‘quv jarayoni davlat ta’lim standartlari va kredit-modul tizimi talablariga muvofiq tashkil etilgan bo‘lib, uning me’yoriy-uslubiy ta’minoti hamda amaliyotda amalga oshirilish holati HEMIS va Moodle platformalari ma’lumotlari, professor-o‘qituvchilar hamda talabalar bilan o‘tkazilgan suhbatlar asosida o‘rganilgan. Tahlil jarayonida fanlarning o‘quv rejalarida mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirilganligi, ularning mazmuni va kutilayotgan ta’lim natijalari o‘rtasidagi izchillik ta’minlanganligi aniqlangan. Nazariy ta’lim, amaliy-laboratoriya mashg‘ulotlari va malakaviy amaliyotning o‘zaro uyg‘unlashtirilganligi talabalarning suv bioresurslari va akvakultura sohasidagi bilimlarini mustahkamlash, texnologik jarayonlarni o‘rganish hamda kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘quv yuklamalarining professor-o‘qituvchilar mutaxassisligi va pedagogik tajribasini inobatga olgan holda taqsimlanganligi fanlarni malakali kadrlar tomonidan o‘qitish va mavjud ilmiy-pedagogik salohiyatdan samarali foydalanish imkonini beradi.

Raqamli ta’lim platformalaridan foydalanish o‘quv jarayonining tashkil etilishini kuzatish, o‘quv materiallarini taqdim etish va talabalarning o‘zlashtirish natijalarini monitoring qilish uchun zarur sharoit yaratadi. Amaliy-laboratoriya mashg‘ulotlarida shakllantiriladigan kasbiy kompetensiyalarni baholash mezonlari bilan uzviy bog‘lash talabalarning nazariy bilimlari va amaliy tayyorgarligini xolis aniqlash, mavjud ehtiyojlarni belgilash hamda ta’lim sifatini izchil takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Tahlil yakunlariga ko‘ra, o‘quv jarayonining tashkil etilishi, fanlar ketma-ketligi, amaliy tayyorgarlik va o‘quv yuklamalarini taqsimlash mexanizmlari belgilangan akkreditatsiya mezonlariga javob berishi aniqlandi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo‘nalishi

Talabalarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda ta’lim jarayonidagi faolligini oshirish uchun zarur tashkiliy mexanizmlar shakllantirilgan. O‘rganish jarayonida talabalar murojaatlarini qabul qilishning an’anaviy va elektron shakllari joriy etilganligi, kelib tushgan murojaatlar belgilangan tartibda ro‘yxatga olinib, mas’ul tarkibiy bo‘linmalar tomonidan nazorat asosida ko‘rib chiqilishi aniqlangan. Murojaatlarni elektron shaklda qayd etish va ularning ko‘rib chiqilish jarayonini kuzatish imkoniyatining mavjudligi murojaatlar bilan ishlashda shaffoflikni ta’minlash, mas’uliyatni oshirish hamda talabalar huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Psixologik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimining yo‘lga qo‘yilganligi talabalarning ta’lim muhitiga moslashishi, yuzaga keladigan ijtimoiy va shaxsiy qiyinchiliklarni bartaraf etishi hamda o‘quv faoliyatida faol ishtirok etishi uchun zarur sharoit yaratadi. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etilishi, fan to‘garaklari va turli tanlovlarda qatnashishi uchun imkoniyatlar yaratilganligi ularning ilmiy salohiyatini rivojlantirish, mustaqil izlanish ko‘nikmalarini shakllantirish va kasbiy qiziqishlarini kengaytirishga yo‘naltirilgan. Murojaatlar bilan ishlash, ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish va ilmiy faoliyatni rag‘batlantirish mexanizmlarining o‘zaro uyg‘unligi talabaga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillarini mustahkamlash hamda ta’lim muhitining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Tahlil yakunlariga ko‘ra, talabalarni qo‘llab-quvvatlash, murojaatlarni ko‘rib chiqish va ularning ilmiy-ijtimoiy faolligini ta’minlash mexanizmlari belgilangan akkreditatsiya talablariga muvofiqligi tasdiqlandi.

5-bob. Inson resurslari yo‘nalishi

Ta’lim dasturini samarali amalga oshirish uchun zarur ilmiy-pedagogik salohiyat shakllantirilgan bo‘lib, kafedrada professorlar, dotsentlar, falsafa doktori (PhD) ilmiy

darajasiga ega mutaxassislar, katta o‘qituvchilar va stajyor-o‘qituvchilardan iborat malakali pedagogik jamoa faoliyat yuritmoqda. O‘rganish jarayonida professor-o‘qituvchilar tarkibining asosiy qismini doimiy shtatda faoliyat yurituvchi xodimlar tashkil etishi aniqlangan bo‘lib, bu o‘quv jarayonining barqarorligini ta’minlash va ta’lim dasturi doirasidagi vazifalarni izchil amalga oshirishga xizmat qiladi. O‘quv yuklamalarining pedagog kadrlar mutaxassisligi, ilmiy darajasi va pedagogik tajribasini inobatga olgan holda adolatli taqsimlanganligi fanlarni tegishli malakaga ega mutaxassislar tomonidan o‘qitish hamda mavjud inson resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Tor ixtisoslikdagi fanlarni o‘qitishga ichki va tashqi o‘rindoshlik asosida faoliyat yurituvchi pedagoglar hamda soatbay mutaxassislarning jalb etilishi ta’lim dasturining ixtisoslashgan fanlar bo‘yicha kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga yo‘naltirilgan. Akvakultura va suv bioresurslari sohasida ixtisoslashgan professor-o‘qituvchilarning mavjudligi talabalarning sohaviy nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliy tayyorgarligini rivojlantirish va zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlariga oid kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Pedagog kadrlarning ilmiy salohiyati, kasbiy tajribasi va o‘qitiladigan fanlar mazmuni o‘rtasidagi muvofiqlik ta’lim sifatini barqaror ta’minlash, o‘quv-uslubiy faoliyatni takomillashtirish hamda bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish uchun zarur sharoit yaratadi. Tahlil yakunlariga ko‘ra, professor-o‘qituvchilar bilan ta’minlanganlik, pedagog kadrlar tarkibini shakllantirish va o‘quv yuklamalarini taqsimlash mexanizmlari belgilangan akkreditatsiya mezonlariga javob berishi aniqlandi.

6-bob. Moddiy-texnik ta’minot yo‘nalishi

Ta’lim dasturini samarali amalga oshirish uchun zarur moddiy-texnik infratuzilma shakllantirilgan bo‘lib, o‘quv auditoriyalari, laboratoriyalar, maxsus o‘quv xonalari, axborot-resurs markazi, kompyuter sinflari va sport inshootlari talabalar kontingenti hamda dastur xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etilgan. O‘rganish jarayonida auditoriyalarning multimedia qurilmalari va internet tarmog‘i bilan ta’minlanganligi, mavjud texnik vositalar o‘quv mashg‘ulotlarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish imkonini berishi aniqlangan. Axborot-resurs markazida o‘quv va ilmiy adabiyotlar fondi hamda elektron ta’lim resurslarining mavjudligi talabalarning mustaqil bilim olishi, ilmiy izlanishlar olib borishi va zarur axborot manbalaridan foydalanishi uchun muhim sharoit yaratadi.

HEMIS va Moodle platformalarining faoliyat yuritishi o‘quv jarayonini raqamli boshqarish, o‘quv materiallarini taqdim etish, talabalar faoliyatini monitoring qilish va ta’lim jarayonining izchilligini ta’minlashga xizmat qiladi. Akvakultura va suv bioresurslari yo‘nalishiga mos maxsus laboratoriyalar hamda amaliyot bazalarining mavjudligi nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirish, suv organizmlarini yetishtirish texnologiyalarini o‘rganish va kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi. Moddiy-texnik resurslarning talabalar kontingenti va o‘quv yuklamalariga mutanosib tashkil etilganligi mavjud infratuzilmadan oqilona foydalanish, amaliy tayyorgarlik samaradorligini oshirish hamda ta’lim sifatining barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Tahlil yakunlariga ko‘ra, moddiy-texnik ta’minot, laboratoriya va amaliyot bazalari, axborot-resurs xizmatlari hamda raqamli ta’lim infratuzilmasi belgilangan akkreditatsiya mezonlariga javob berishi aniqlandi.

6. BAHOLASH YO‘NALISHLARI (BOB) BO‘YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to‘sqinlik qiluvchi):

Ta’lim dasturini yo‘lga qo‘yish uchun to‘sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo‘lgan juz’iy kamchiliklar:

- ✓Talabalar murojaatlarini elektron kuzatish va ularning natijadorligini tahlil qilish tizimini yanada takomillashtirish zarurati mavjud.
- ✓Akvakultura yo‘nalishi bo‘yicha zamonaviy xorijiy adabiyotlar va xalqaro ilmiy bazalardan foydalanish ulushini oshirish zarur.
- ✓Yosh pedagoglarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etish va tor ixtisoslik bo‘yicha kadrlar zaxirasini kengaytirish bo‘yicha ishlarni kuchaytirish lozim.

7. TA’LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO‘YICHA TAVSIYALAR

- ✓Talabalar murojaatlari va ularning yechimi monitoringini elektron tizimda yuritib, natijalarini dasturni takomillashtirishda qo‘llash.
- ✓ARM fondini akvakultura va suv bioresurslariga oid zamonaviy xorijiy manbalar bilan boyitish hamda xalqaro ilmiy bazalarga kirishni kengaytirish.
- ✓Akvakultura amaliyot bazalari bilan hamkorlikni shartnomalar asosida kengaytirish va talabalar ilmiy-tadqiqot ishlarini rag‘batlantirish.

- ✓Tor ixtisoslik fanlari bo‘yicha kadrlar zaxirasini shakllantirish va yosh pedagoglarni doktoranturaga yo‘naltirish.

8. TA’LIM DASTURI BO‘YICHA YAKUNIY XULOSA

60830100 – “Suv bioresurslari va akvakultura” bakalavriat ta’lim dasturi bo‘yicha taqdim etilgan hujjatlar, o‘quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, professor-o‘qituvchilar salohiyati hamda moddiy-texnik ta’minot belgilangan akkreditatsiya mezonlari asosida har tomonlama o‘rganildi. Tahlil natijalariga ko‘ra, dasturning tashkiliy-boshqaruv tizimi va ichki sifatni ta’minlash mexanizmlari amaldagi me’yoriy talablarga muvofiq shakllantirilgan bo‘lib, dastur mazmunini takomillashtirishda manfaatdor tomonlar ishtiroki ta’minlangan. Ta’lim dasturi strategik rivojlanish maqsadlari, mehnat bozori ehtiyojlari va ilg‘or xorijiy tajribani inobatga olgan holda ishlab chiqilgan, nazariy ta’lim, amaliy-laboratoriya mashg‘ulotlari, ilmiy-tadqiqot faoliyati va malakaviy amaliyot o‘rtasidagi uzviylik ta’minlangan. O‘quv jarayoni davlat ta’lim standartlari va kredit-modul tizimi talablariga muvofiq tashkil etilgan bo‘lib, HEMIS va Moodle platformalari orqali o‘quv faoliyatini boshqarish hamda monitoring qilish imkoniyatlari yaratilgan. Talabalar murojaatlarini ko‘rib chiqish, psixologik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, ularni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etish mexanizmlari yo‘lga qo‘yilgan. Professor-o‘qituvchilar tarkibi tegishli ilmiy daraja, kasbiy malaka va pedagogik tajribaga ega mutaxassislardan shakllantirilgan, o‘quv yuklamalari ularning ixtisosligi va salohiyatini inobatga olgan holda taqsimlangan. Ta’lim dasturini amalga oshirish uchun zarur auditoriyalar, ixtisoslashtirilgan laboratoriyalar, amaliyot bazalari, axborot-resurs markazi va raqamli ta’lim infratuzilmasi mavjudligi tasdiqlangan. Amaliy tayyorgarlik samaradorligini oshirish, ta’lim natijalarini baholash mexanizmlarini takomillashtirish va mavjud resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan tavsiyalar dasturni amalga oshirishga to‘sqinlik qilmaydi hamda uning sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Baholash yakunlariga ko‘ra, oltita bob doirasidagi 27 ta akkreditatsiya mezonining barchasi muvofiq deb topildi. Umuman olganda, 60830100 – “Suv bioresurslari va akvakultura” bakalavriat ta’lim dasturi belgilangan akkreditatsiya talablariga MUVOFIQ deb baholandi.

9. TA’LIM DASTURI BO‘YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	03.08.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	6-son
Yakuniy qaror:	**AKKREDITATSIYADAN O‘TDI**

Guvohnoma (MAS № 0000482) haqiqiyligini NQAAE davlat akkreditatsiyasi reyestrida tekshirish uchun QR kod

NATIONAL QUALITY ASSURANCE AGENCY FOR EDUCATION

NQAAE

UNDER THE ADMINISTRATION OF THE PRESIDENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

+998 55 505 30 30

info@nqaae.uz
www.nqaae.uz

@nqaaeuz

@nqaaeuzbot